

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ALIMOVA NARGIZA RUSTAM QIZI

**AYOL QIYOFASINING VIZUAL SAN’AT TURLARIDA IFODALANISHI
VA TRANSFORMATSIYASI: BADIY-ESTETIK TAHLIL**

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (estetika)

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya**

AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
philosophical sciences**

Alimova Nargiza Rustam qizi

Ayol qiyofasining vizual san'at turlarida ifodalanishi va transformatsiyasi: badiiy-estetik tahlil 3

Алимова Наргиза Рустам кизи

Отображения и трансформация образа женщины в визуальном искусстве: художественно-эстетический анализ..... 25

Alimova Nargiza Rustam qizi

Reflection and transformation of the image of woman in visual arts: artistic and aesthetic analysis.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works54

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ALIMOVA NARGIZA RUSTAM QIZI

**AYOL QIYOFASINING VIZUAL SAN’AT TURLARIDA IFODALANISHI
VA TRANSFORMATSIYASI: BADIY-ESTETIK TAHLIL**

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (estetika)

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya**

AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fal1199 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fs-ik.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirova Dilbar Solihovna
falsafa fanlari nomzodi, professor

Rasmiy oponentlar:

Agzamxodjayeva Saida Sabitxanovna,
falsafa fanlari doktori, professor

Jumaniyazova Dilfuza Kamalovna,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 04-oktyabr soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, Yoshlar markazi binosi, Kichik majlislar zali. Tel.: (99871) 246-02-24, faks: (99871) 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (153-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU Ma'muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «22» sentyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «22» sentyabrdagi № 18 raqamli reyestr bayonnomasi)

I.S.Saifnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari
doktori, professor

G.M.Shadimetova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

O'.G'.Tilovov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv davrida xotin-qizlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, gender tengligini ta'minlash, ayollarning ijtimoiy maqomini oshirish yo'nalishlarida e'tibor ortib bormoqda. Xususan, postmodern taraqqiyot davridagi badiiy-estetik tafakkurning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida san'atda va vizual borliqning boshqa shakllarida ayol obrazi hamda uning ijtimoiy ongda in'ikosi bilan bog'liq bo'lgan masalalarga qiziqish ortib bormoqda. Ayol qiyofasi, uning badiiy ijodda aks ettirilishi, turli davr, turli ijtimoiy-siyosiy tuzumlarda ayollarga bo'lgan munosabatning o'zgarib borishi san'atda ham ayol, uning go'zalligi, nafosati, ijtimoiy hayotdagi o'rni bilan bog'liq yondashuvlarga mos ravishda ayol obrazining in'ikosida o'ziga xos transformatsiyaga uchrab kelgan va bu jarayon hozir ham davom etmoqda.

Dunyoda ayollarning global ijtimoiy taraqqiyotda tutgan o'rni, ayollar va erkaklar uchun huquq hamda imkoniyatlarning tengligini ta'minlash, jamiyat hayotining turli sohalarida gender tengligiga erishish bilan bog'liq masalalar muhim rol o'ynamoqda. Xususan, zamonaviy ayolning universal vizual tasvirini yaratish, san'atning turli shakllarida hamda nosan'at estetik faoliyat yo'nalishlari hisoblanuvchi sohalarida ayolning ijtimoiy hayotdagi rolini haqqoniy uslubda aks ettirish, ideal ayol obrazida zamonaviy go'zallik standartlari va umuminsoniy estetik ideallarni uyg'unlashtirish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Mazkur jarayonni ijtimoiy, badiiy-estetik va falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilish, milliy va umuminsoniy estetik qadriyatlarni uyg'unlashtirish, zamonaviy san'at va estetika nuqtayi nazaridan o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham ayol vizual tasviri, uning evolyutsiyasi, madaniy kontekstdagi transformatsiyasini badiiy-estetik jihatdan o'rganish zarurati vujudga kelmoqda. Bu boradagi ilmiy izlanishlar, shubhasiz, jamiyatda ayollarning ijtimoiy o'rnini mustahkamlash, salbiy gender stereotiplarni bartaraf etish va ayollarni e'zozlash bilan bog'liq an'anaviy qadriyatlar tizimini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda azal-azaldan ayollarga nisbatan o'ziga xos munosabat shakllangan bo'lib, bugungi kunda ham jamiyatimizda har jabhada gender muvozanatni ta'minlash, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotdagi faolligini oshirish, ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini topishi maqsadida tizimli islohotlarni olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi amalga oshirilayotgan islohotlarni ijtimoiy-ma'naviy ongdagi in'ikosi sifatida san'atda zamonaviy o'zbek ayoli idealini aks ettirish, ayol vizual tasvirining estetik qirralarini tasvirlash muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "Yer yuzida muqaddas degan so'zga eng munosib zot bu – avvalo, Onadir. Xalqimiz ona siymosini doimo ulug'lab, ardoqlab yashaydi. Yurtimizda onalarni sharaflab muhtasham haykallar bunyod qilingani ham shundan dalolat beradi."¹

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent O'zbekiston, 2017. –B. 341.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son “Oila va xotin qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 21-dekabrdagi PF-208-son “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik-huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, ularga nisbatan shakllangan ijtimoiy munosabat, san‘at asarlarida yoki konkret ijodkor asarlarida ayollar tasvirining aks ettirilishi kabi masalalar ko‘plab ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Umuman olganda ayollar bilan bog‘liq mavzular u yoki bu darajada antik davrdan buyon o‘rganilib kelinmoqda.

Qadimgi yunon faylasuflaridan Arastu, Suqrot, Pifagor, Aflotun kabilar go‘zallik, xususan insonning tashqi go‘zalligining yaxshilik, foydalilik kabi boshqa falsafiy-axloqiy kategoriyalar bilan munosabatini tahlil qilgan, jamiyatda ayollarning o‘rni, ayollar va erkaklarning o‘zaro munosabatda uyg‘unligi, bir-birini to‘ldirishi haqida o‘z fikrlarini bildirib ketgan². Keyinchalik O‘rta asrlarda yashagan Avgustin Avrelian, Foma Akvinskiy, Laktansiy kabi G‘arb sxolastik falsafasi vakillari go‘zallik, xususan, inson tanasining go‘zalligi Xudoning inoyati ekanligi, go‘zallikning eng yuksak shakli insonning ma‘naviy borlig‘i orqali yuzaga chiqishiga oid nuqtayi nazarlarini bayon qilgan³.

Uyg‘onish davrida Sh.Battyo⁴, G.E.Lessing⁵ kabi yevropalik faylasuflar go‘zallikning kategorial tizimi, undagi me‘yor va mezon, vizuallashtirish hodisasi kabi yo‘nalishlarni tahlil qilishgan.

² Aristotle. *Politics*. – Indianapolis: Hackett Publishing, 1998. – pp. 281; Kirk G.S. *The Presocratic Philosophers: A Critical History with a Selection of Texts*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Plato. *The Republic*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – pp. 434; Plato. *The symposium*. – London; New York: Penguin Books, 1999. – pp. 148.

³ McWilliam J. et al. (ed.). *Augustine: from rhetor to theologian*. – Wilfrid Laurier Univ. Press, 1992. – pp. 237; Sevier C. S. *Thomas Aquinas on the Nature and Experience of Beauty*. PhD Thesis. – University of California, Riverside, 2012; Xu Z. *Lactantius and Eusebius: Christianity and Philosophy in the Early Fourth Century* // *Open Journal of Philosophy*. – 2023. – vol. 13. – issue. 4. – pp. 646-667.

⁴ Townsend D. Batteux, Charles. *The Fine Arts Reduced to a Single Principle* // *The Journal of Aesthetics and Art Criticism*. – 2016. – vol. 74. – issue. 4. – pp. 413-415.

⁵ Sjöholm C. *Lessing's Laocoon: Aesthetics, Affects and Embodiment* // *Nordic Journal of Aesthetics*. – 2013. – №. 46. – pp. 18-33.

Qadimgi Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi ham azal-azaldan ayollarning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli masalasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Markaziy Osiyodagi eng qadimgi yozma manba bo'lgan zardushtiylarning "Avesto" kitobi yoki "Alpomish", "Qirqqiz" kabi xalq og'zaki ijodiyoti namunalarida ham ayollarning erkaklar bilan bir qatorda ijtimoiy nufuzga ega bo'lganliklarini isbotlovchi ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Shuningdek, Markaziy Osiyolik mutafakkirlardan Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy va boshqalar o'z asarlarida xotin-qizlarning ijtimoiy va oilaviy hayotdagi o'rniga oid fikrlar bildirgan. Keyinchalik, xotin-qizlarning oiladagi o'rni, ma'naviyati, shaxsiy fazilatlarini, ularga qo'yiladigan axloqiy va estetik mezonlar xususida Abdurauf Fitrat⁶, Mirzakalon Ismoiliy⁷ kabi jadid namoyondalari diqqatga sazovor asarlar yaratgan.

Ayollarning san'at asarlarida aks ettirilishi, tasvirda bir vaqtning o'zida ichki hamda tashqi go'zallikning garmoniyasi, muayyan tarixiy davrda san'at va nosan'at sohalardagi ayollar obrazlarining estetik xususiyatlarini tahlili bilan bog'liq qarashlarni A.F.Dixson, B.J.Dixson, M.Bertamini, H.Martin, S.Finn⁸ kabi G'arb va V.Berezina, V.Bichkov, M.Kagan, M.Mojeyko, M.Petrov, Y.Potapchuk, K.Avdushina, Z.Rahmatulina⁹ singari MDH va rus mutaxassislari asarlarida uchratish mumkin.

Xususan, rus tadqiqotchilaridan ijtimoiy ongning turli ko'rinishlarida, xususan, mifologik, diniy dunyoqarashda, zamonaviy feministik ta'limotlarda ayol obrazining evolyusiyasi¹⁰, falsafiy antropologiyada ayol obrazi, ayol va erkak o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning falsafiy jihatlari¹¹, 1917-1929-yillarda sovet jamiyatida ayol rolining o'zgarishi, sovet madaniyatida ideologik "yangi ayol" obrazining shakllantirilishi¹², XIX-XX asrlarda rus adabiyotida ijod qilgan shoir va yozuvchilar ijodida ayol obrazining transformatsiyasi¹³, Rossiyadagi boshqird xalq

⁶ Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000

⁷ Mirzakalon Ismoiliy. Qizlar daftariga. – Toshkent, 2000

⁸ Alan F. Dixon; Barnaby J. Dixon. Venus Figurines of the European Paleolithic: Symbols of Fertility or Attractiveness? // Journal of Anthropology. 2011. – pp. 1–11.; Bertamini, M., Rampone, G., Makin, A. D., & Jessop, A. Symmetry preference in shapes, faces, flowers and landscapes //PeerJ. – 2019. – vol. 7. – pp. e7078; Martin H., Finn S.E. Masculinity and Femininity in the MMPI-2 and MMPI-A. – U of Minnesota Press, 2010. – pp. 5-13.

⁹ Березина В. Ю. Эволюция образа советской женщины на обложках журнала "Огонёк" //Филология в пространстве современных гуманитарных исследований. – 2016. – С. 166-172; Бычков В. Вкус //Философская антропология. – 2018. – Т. 4. – №.1. – Ст. 122-139; Кagan M.C. Морфология искусства. – М.: Искусство, 1972. – С. 6.; Можейко М. А. Женщина глазами средневековой культуры: антифеминизм как фобия // Журн. Белорус. гос. ун-та. Социология. 2017. № 2. – С. 128-138; Петров М. С. Эволюция образа женщины в отечественной журналистике (на примере контент-анализа журнала "Крестьянка") //Вопросы культурологии. – 2010. – №. 7. – С. 40-44; Потапчук Э.Ю., Авдюшина К.С. Образ женщины в современной рекламе: основные тенденции 2016-2019 гг //Общество: социология, психология, педагогика. – 2020. – №. 4 (72); Рахматуллина З. Современная женщина: красота как единство этизма и эстетизма //Ватандаш. – Уфа, 2016. – №. 3. – С. 161-168.

¹⁰ Ворошилова О.Н. Эволюция образов женщины в общественном сознании. автореферат дис. кандидата философских наук: 09.00.11 -М.: 2008.

¹¹ Григорьева Д. К. Философско-антропологические аспекты образа женщины в гендерных исследованиях. автореферат дис. кандидата философских наук: 09.00.13 -М.: 2004.

¹² Шабатура Э. А. Образ "новой женщины" в советской культуре 1917-1929 гг. автореферат дис. кандидата исторических наук: 07.00.02. – М.: 2006.

¹³ Сивова О.В. Образ женщины в поэзии Серебряного века: Этико-эстетический анализ. автореферат дис. кандидата философских наук: 09.00.05 -М.: 2002.

adabiyotida musulmon ayol timsolining badiiy qiyofasi¹⁴, ijtimoiy kundalik ongda ayol qiyofasi namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari¹⁵ kabi mavzular tadqiq etilgan.

Tojikistonlik olimi R.Shofakirova Firdavsiyning "Shoxnoma" asarida oiladagi ona-ayolning o'rni, farzand tarbiyasidagi roli¹⁶ni o'rgangan bo'lsa, hamyurtlarimiz X.Lutfiddinova, O.Nishonova, F.Mahmudovlar "O'tgan kunlar" va "Kecha va kunduz" asarlarida ijodkorning ayol obrazi asosida taqdim etgan estetik ideali¹⁷, o'zbek ayollarining etnomadaniy xususiyatlari, uning tarixiy shakllanishi va asosiy aspektlari, zamonaviy o'zbek kinosida ayollar obrazining estetik xususiyatlarini¹⁸ tadqiq etgan.

Shuningdek, san'at asarlarida obraz masalasi, ayollar obrazi, estetik ideal va estetik qadriyatlar, go'zallik kabi estetik muammolarni Abdulla Sher, N.Abdullayeva, Q.Nishonboyeva, E.Umarov, B.Xusanov, D.Qodirova¹⁹, ayollar ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini oshirish masalalarini N.Nishonova, A.Huseynova²⁰ kabi o'zbekistonlik olimlar ham o'rganishgan.

Lekin, ayollar obrazining O'zbekiston etnomadaniy muhitida yaratilgan vizual san'at asarlarida aks ettirilishi va transformatsiyasi masalasi badiiy va estetik jihatdan yaxlit tarzda tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning amaliy jihatdan ahamiyatini oshishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Estetika nazariyasi va tarixi masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi vizual san'atda ayol qiyofasining aks ettirilishining turli davrlar, yo'nalishlar, ijtimoiy jarayonlar ta'sirida transformatsiyaga uchrashini badiiy-estetik tarafdin tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

¹⁴ Разяпова Р.К. Художественное воплощение образа женщины-мусульманки в башкирской литературе. . автореферат дис. кандидата литературный наук: 10.01.12 -М.: 2009.

¹⁵ Абрамова С.В. Образ женщины в обыденном сознании личности. автореферат дис. кандидата психологических наук: 19.00.01 –Кубань.: 2005.

¹⁶ Шофакирова Р.М. Образ женщины-матери в "Шахнаме" Фирдоуси. автореферат дис. кандидата литературный наук: 10.01.03 -Душанбе.: 2004.

¹⁷ Lutfiddinova X. Yozuvchining estetik ideali va ayollar obrazi ("O'tgan kunlar" va "Kecha va kunduz" romanlari misolida. Filologiya fanlari nomzodligi uchun dissertatsiya avtoreferati. 10.01.12. – Toshkent: 1994.

¹⁸ Nishonova O.J. O'zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari (falsafiy-madaniy yondashuv). Falsafa fanlari nomzodligi uchun dissertatsiya avtoreferati. 17.00.08. – Toshkent: 2005; Nishonova O., Mahmudov F. Zamonaviy o'zbek milliy kinosida ayol obrazi // Fuqarolik jamiyati. – Toshkent, 2017. №4 (52). – B. 22-25.

¹⁹ Abdulla Sher. Go'zallik yog'dusi. Toshkent; Faylasuflar, 2017. – B. 57; Abdullayeva N.D. San'at tarixi (o'quv qo'llanma). Toshkent, 2004. – B. 9; Nishonboyeva Q.V. O'zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari (20-30-yillar). Tajriba va oqibatlar. Tarix fanlari nomzodligi uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1998. – 129 b.; Umarov E. Teatrdagi badiiy obraz yaratishning asosiy estetik prinsiplari (O'zbek milliy teatr san'ati misolida). Fal. fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi. 09.00.04. – Toshkent: 1995; Xusanov B., Qodirova D. San'at va estetik tarbiya. Toshkent: Universitet, 2018. – B. 65.

²⁰ Nishonova N. O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlar faoliyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Fal. fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi. 09.00.04. – Toshkent: 2020; Хусейнова А. Роль женщин в социально-политической жизни общества // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

vizual san'at hamda nosan'at estetik faoliyat shakllarida "femininlik" fenomeni namoyon bo'lishining estetik xususiyatlarini tahlil qilish;

vizual san'atning tarixiy taraqqiyotida, turli davrlar, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ayol obrazining transformatsiyaga uchrashini tadqiq etish;

ayol obrazining vizual tasvirida estetika qonuniyatlari va kategoriyalari dialektikasi hamda yuz go'zalligi, tana go'zalligi va plastik go'zallik garmoniyasini yoritib berish;

ayol obrazining Sharq va G'arb uchun xos bo'lgan vizual san'at uslublarida aks ettirilishining estetik xususiyatlari, ularning dialektik bog'liqligi tarixiy manbalar asosida yoritib berish;

zamonaviy ayol obrazining shakllanishi bilan bog'liq tendensiyalarning estetik faoliyat, did, ideal va qadriyatlar tizimiga nisbatan ko'rsatayotgan ta'sirini tahlil qilish;

kino va foto san'ati, rassomlik, haykaltaroshlik va boshqa zamonaviy o'zbek vizual san'ati turlarida ayol obrazining aks ettirilishining badiiy-estetik xususiyatlari, zamonaviy o'zbek ayollari uchun estetik idealning estetik qirralarining shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti san'atda ayol obrazining ifodalanishi va transformatsiyasidan iborat.

Tadqiqotning predmeti vizual san'at asarlarida aks ettirilgan ayol tasvirining badiiy va estetik jihatlari sanaladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning analiz va sintez, qiyosiy tahlil, kuzatish, kompleks yondashuv, ijtimoiy so'rov usullaridan, shuningdek, o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik, obyektivlik hamda mantiqiylik tamoyillaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

vizual san'at turlarida ayol qiyofasi namoyon bo'lishida obrazning anatomik jihatlari (yuz va tananing fiziologik strukturasi), funksional elementlari (harakat, mimika, nutq), ijtimoiy atributlari (libos, pardoz, taqinchoqlar, soch turmagi) hamda estetik determinantlarining (estetik me'yorlar, qonuniyatlar, ideallar, qadriyatlar) uyg'unligi dominant estetik tamoyil ekanligi aniqlangan;

Sharq va G'arb vizual san'atining qiyosiy tahlili asosida ayol vizual obrazining zamon va makondagi transformatsiyasiga tarixiy, sivilizatsiyaviy va madaniy kontekst, badiiy-estetik, diniy-falsafiy qarashlar, estetik qadriyatlar tizimi, san'at uslublari va vositalari hamda dialektik rivojlanish tamoyillari ta'sir ko'rsatishi falsafiy dalillangan;

ayolning zamonaviy vizual qiyofasini belgilovchi global madaniy integratsiya, raqamli estetika va virtual san'atning taraqqiyoti, an'anaviy san'at uslublari va ayollar obrazlarining qaytishi, gender neytrallik, zamonaviylik va futurizm, estetik tibbiyotning rivojlanishi kabi tendensiyalarning estetik faoliyat, did va qadriyatlar tizimiga ta'siri falsafiy nuqtayi nazardan ochib berilgan;

zamonaviy o'zbek vizual san'atida ayol obrazini ifodalashda ayolning jamiyatdagi o'rni, global muammolarning genderga oid jihatlari, estetik va ijtimoiy ideallar uyg'unligi, ayollar tashqi go'zalligi mezonlariga "inson-tabiati"

dialektikasining ta'siri kabi ijtimoiy-falsafiy va estetik xususiyatlarga e'tibor qaratish zaruriyati konseptual jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Ayol qiyofasining vizual san’atda ifodalanishining badiiy-estetik xususiyatlari” mavzusida sotsiologik tadqiqot natijalari asosida tahliliy ma'lumotlar ishlab chiqilgan;

ayol obrazining vizual san’at turlarida ifodalanishi jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy obraziga ta'sir etishi, vizual san’atning zamonaviy o'zbek ayoli idealni yaratishi lozimligiga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingani, OAK ro'yxatidagi tegishli jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop qilingan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan ayol obrazining vizual san’at turlarida ifodalanishi jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy obraziga ta'sir etishi, vizual san’atning zamonaviy o'zbek ayoli idealni yaratishi lozimligiga oid umumlashtirilgan xulosalardan vizual san’atda ayollar obrazini o'rganishga doir ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa unda ilgari surilgan asosiy xulosa va tavsiyalardan madaniy-ma'rifiy, badiiy targ'ibot tadbirlarida, oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat va magistratura bosqichlarida “Estetika”, “San’atshunoslik”, “San’at nazariyasi”, “Madaniyat falsafasi”, “Etika va estetikaning nazariy asoslari”, “Analitik estetika” kabi o'quv kurslari mashg'ulotlarini olib borishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ayol qiyofasining vizual san’at turlarida ifodalanishi va transformatsiyasini badiiy-estetik tahlil qilishga oid olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

vizual san’at turlarida ayol qiyofasi namoyon bo'lishida obrazning anatomik jihatlari (yuz va tananing fiziologik strukturasi), funksional elementlari (harakat, mimika, nutq), ijtimoiy atributlari (libos, pardoz, taqinchoqlar, soch turmagi) hamda estetik determinantlarining (estetik me'yorlar, qonuniyatlar, ideallar, qadriyatlar) uyg'unligi dominant estetik tamoyil ekanligi aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston muzeylar kengashi tarkibidagi O'zbekiston davlat san’at muzeyi, O'zbekiston kino san’ati muzeyi, O'zbekiston amaliy san’at muzeyi kabi muzeylarda ayollar tasviri bilan bog'liq eksponatlar zallari va ko'rgazmalar faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston muzeylar kengashining 2024-yil 29-oktyabrdagi 01-01/392-son ma'lumotnomasi). Natijada respublika muzeylarida ayollar obrazini ifodalovchi ko'rgazmalarining vizual tarafdin ta'sirchanligi ortishiga hamda muzeyga tashrif buyuruvchilarning estetik dunyoqarashini oshishiga erishilgan.

Sharq va G'arb vizual san’atining qiyosiy tahlili asosida ayol vizual obrazining zamon va makondagi transformatsiyasiga tarixiy, sivilizatsiyaviy va madaniy kontekst, badiiy-estetik, diniy-falsafiy qarashlar, estetik qadriyatlar tizimi,

san'at uslublari va vositalari hamda dialektik rivojlanish tamoyillari ta'sir ko'rsatishi dalillanganligiga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2020-2024-yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturining VI. "Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ustuvor yo'nalishlar"da keltirilgan vazifalar ijrosi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2024-yil 23-oktyabrdagi 02-02/57-son ma'lumotnomasi). Natijada partiya tizimidagi xodimlarning siyosiy-huquqiy yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, o'quv-uslubiy hamda mafkuraviy targ'ibot ishlarida samaradorlik ortishiga xizmat qilgan.

ayolning zamonaviy vizual qiyofasini belgilovchi global madaniy integratsiya, raqamli estetika va virtual san'atning taraqqiyoti, an'anaviy san'at uslublari va ayollar obrazlarining qaytishi, gender neytrallik, zamonaviylik va futurizm, estetik tibbiyotning rivojlanishi kabi tendensiyalarning estetik faoliyat, did va qadriyatlar tizimiga ta'siri falsafiy nuqtayi nazardan ochib berilganligiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yilga mo'ljallangan ish rejasining "Oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash, ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni shakllantirishda ishtirok etish, fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish" deb nomlangan I-bobning 7-bandi ijrosini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 9-sentyabrdagi 01-09/2146A-son ma'lumotnomasi). Natijada davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning rolini yanada oshirishga qaratilgan uslubiy materiallarning ilmiy tarafdin ta'sirchanligi oshishiga erishilgan.

zamonaviy o'zbek vizual san'atida ayol obrazini ifodalashda ayolning jamiyatdagi o'rni, global muammolarning genderga oid jihatlari, estetik va ijtimoiy ideallar uyg'unligi, ayollar tashqi go'zalligi mezonlariga "inson-tabi'at" dialektikasining ta'siri kabi ijtimoiy-falsafiy va estetik xususiyatlarga e'tibor qaratish zaruriyati konseptual jihatdan asoslanganligiga oid xulosalar, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi faoliyatida zamonaviy o'zbek ayolining imijini shakllantirish, xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotida o'rni bilan bog'liq "Dugonalar", "Millat va ma'naviyat", "Ta'lim va taraqqiyot" teledasturlarining 2024-yil iyun-avgust oylaridagi sonlari dasturlari va ssenariylari tayyorlanishida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 14-oktyabrdagi 04-36-1104-son ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlar ma'naviy-estetik dunyoqarashi va ayollar vizual obrazi hamda imiji bilan bog'liq estetik qarashlar tizimi yuksalishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu dissertatsiyasining tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida taqdim qilingan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop qilingan, jumladan O'zbekiston Respublikasi OAKning

doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya “Kirish”, uchta bob, “Xulosa”, “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”, “Ilovalar” dan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, obyekti, predmeti, metodlari asoslangan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Vizual san‘at turlarida ayol obrazi aks ettirilishining nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida “vizuallashuv”, “vizual san‘at” va “femininlik” tushunchalarining mazmuni va estetik mohiyati yoritib berilgan, shuningdek, vizual san‘at turlarining tarixiy taraqqiyotida ayol obrazining transformatsiyasi tahlil qilingan.

Tadqiqotchining fikricha, vizuallashuv (lotincha «visualis» - «ko‘rishga oid») atamasi estetikada ijodkor tomonidan borliqni badiiy-estetik idrok etish hamda badiiy obrazni yaratishda mavjud bo‘lgan barcha vizual vositalardan foydalanish jarayonini ifodalaydi²¹. Boshqacha qilib aytganda, vizuallashuv ijodiy jarayon sifatida ongda tasvirlarni yaratish, boshqarish va jonlantira olish mahorati²² hisoblanadi. Vizualashuv estetik hodisa sifatida individual xarakterga ega bo‘lib, har bir ijodkor alohida subyekt sifatida borliqni o‘zicha idrok etadi, his qiladi va tasvirlaydi. Shu bilan bir qatorda mazkur jarayonda subyekt umumiy ijtimoiy, badiiy, estetik va axloqiy ideallar ta‘sirida bo‘ladi, ulardan ruhlanadi hamda ideallarni ifodalashga harakat qiladi.

Dissertantning fikricha, vizual san‘at san‘atning shunday ko‘rinishiki, u o‘zida boshqa sezgilar bilan qabul qilishidan ko‘ra ko‘rish sezgisi orqali idrok qilinishi dominant bo‘lgan san‘atning barcha shakllarini, xususan eng qadimgi devoriy suratlardan tortib eng zamonaviy axborot texnologiyalari orqali yaratiladigan animatsiyalargacha bo‘lgan ko‘rinishlarini qamrab oladi.

Ushbu bobda dissertant vizual san‘at turlarini tasnifini ham taqdim etgan. Unga ko‘ra, vizual san‘at turlari sifatida quyidagi to‘rt toifadagi san‘at turlarini e‘tirof etish mumkin:

1. Tasviriy san‘at turlari. Tasviriy san‘at turlari hisoblanuvchi rassomlik, grafika, gravyura, haykaltaroshlik, miniatyura, kalligrafiya (husnixat san‘ati) va me‘morchilik vizual san‘at turlari sifatida mazkur tasnifda asosiy o‘rinni egallaydi.

²¹ Ивлева А.Ю. Визуализация как метод конструирования символов в разных видах искусства //Язык. Культура. Общество. – 2008. – №. 1. – С. 2008-18.

²² Шайхисламов А.Х., Балобанова К.А., Камышова Я.А., Абасова А.Р. Искусство и визуализация // 83я Международная научная конференция Евразийского Научного Объединения по теме “Приоритеты мировой науки: эксперимент и научная дискуссия”. – М., 2022. – с. 419-420. <https://esa-conference.ru/wp-content/uploads/2022/02/esa-january-2022-part5.pdf>

Ushbu san'at turlarini tasviriy san'atning an'anaviy shakllari deb ta'riflash ham mumkin. Chunki ularning aksariyat qismi bir necha asrlardan bir necha mingyilliklargacha bo'lgan tarixga ega bo'lib, deyarli dunyoning barcha mintaqalarida turli millat va elatlarning ijodiy, estetik va madaniy faoliyatida alohida ahamiyat kasb etib kelgan.

2. Zamonaviy san'at turlari. Vizual san'atga zamonaviy tasviriy san'at turlari sifatida e'tirof etiluvchi konseptual san'atning turli shakllari – assamblyaj, kollaj, aralash texnika san'ati (mixed-media), installyatsiya, performans kabi san'at turlarini kirgizishimiz mumkin. Shuningdek, plynkali va raqamli kamera yordamida yaratiladigan foto, video-art, kino san'ati, animatsiya va ularning turli-tuman shakllari, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida tayyorlanadigan kompyuter grafikasi, jikle-printlar, zamonaviy ekologik vizual san'at hisoblanuvchi lend-art, muz yoki qor haykaltaroshligi, zamonaviy graffiti san'ati ham vizual san'at sifatida tasnif qilinadi.

3. Dekorativ san'at va hunarmandchilik. O'z mazmuniga ko'ra dekorativ san'at va hunarmandchilikning ba'zi turlari ko'pincha vizual san'atga tegishli faoliyat shakllari sifatida e'tirof etiladi. Xususan, bu turkumga kiradigan kulolchilik, mozaika san'ati, vitraj, gilamchilik, to'qimachilik, o'ymakorlik, dekorativ rangtasvir, sahna bezaklari kabi ijodiy faoliyat turlari ham asosan insonning ko'rish orqali estetik zavq olishini asosiy maqsad qilib olgan.

4. Boshqa shakldagi estetik faoliyat turlari. Vizual san'at tushunchasini kengroq talqin qilganda, uning tarkibiga nosan'at estetik obyektlar hamda badiiy-estetik faoliyatning ba'zi ko'rinishlarini ham kirgizish mumkin. Xususan, dizaynning turli ko'rinishlari bo'lgan texnika dizayni, grafik dizayn, kiyimlar dizayni, interer va eksterer dizayni shular jumlasidan. Qolaversa, bodi-art sifatida tasniflanuvchi tatuirovka, tana va yuzga surat chizish, makiyaj va pardoz, estetik tibbiyot vizual san'atning asosiy tamoyillariga murojaat qilganligi sababli ularni ham mazkur tasnifga kiritish mumkin.

Bobda tadqiqotchi ayollar obrazining vizual san'at tarixida aks ettirilishini tarixiylik tamoyili asosida quyidagi ketma-ketlikka ajratgan holatda tasniflash mumkinligini ta'kidlaydi:

1. Ibtidoiy san'at;
2. Qadimiy yoki antik san'at;
3. O'rta asrlar davrida san'at;
4. Yangi va eng yangi tarix san'ati;
5. Zamonaviy san'at.

Mazkur tasnif insoniyat tarixini tadqiq etishda qo'llanilib kelinadigan umumiy tasnifga asoslangan. Uning har bir davrida ushbu davrgagina xos bo'lgan badiiy-estetik ehtiyojlardan, ijtimoiy ongning taraqqiy etish darajasidan kelib chiqqan holda ayol mavzusiga murojaat qilingan. O'z navbatida har bir davrda dunyoning turli mintaqalaridagi ijtimoiy taraqqiyot turli darajada bo'lganligini, har bir ijtimoiy-etnik guruhda ayollarga turlicha munosabatda bo'linganligini, bunda jamiyatdagi falsafiy, diniy ta'limotlarning katta ta'siri mavjud ekanligini ham ta'kidlash lozim.

Tadqiqotchining fikricha, bugungi kunga qadar eng qadimiy san'at namunasi sifatida e'tirof etiluvchi artefakt Germaniyaning Shtadel g'oridan topilgan "Sherodam" haykali hisoblanadi²³. Ushbu haykalning yoshi taxminan 32-40 ming yilga teng. Va eng qizig'i ushbu haykal ba'zi tadqiqotchilar tomonidan "Sher boshli ayol" sifatida talqin etilmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida haykaldagi moda sher boshi va tananing tuzilishi ko'rsatilmoqda²⁴. Tarixdagi hozircha biz bilgan eng qadimiy artefakt, eng ibtidoiy san'at asari ayol va sher tasvirlangan antropomorf mifologik jonzot haykali bo'lib turibdi. Bu esa san'atning paydo bo'lishi bevosita ayol obrazining unda aks etishi bilan chambarchas ravishda amalga oshganligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, dissertantning fikricha, vizual san'at asarlarida ayollar siymosi ibtidoiy ilk san'at namunalaridan zamonaviy san'at durdonalarigacha bo'lgan tarixiy taraqqiyot mobaynida soddadan murakkabga qadar takomillashib, evolyusiyaga uchrab, rivojlanib borgan. Bu tendensiya barcha san'at turlarida kuzatilib, evolyusion jarayonlar bugungi kunga qadar davom etmoqda, ayol obrazining tarixiy transformatsiyasi zamonaviy san'at namunalarida ham aksini topib kelmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Vizual san'at turlarida ayol qiyofasi ifodalanishining badiiy-estetik jihatlari**" deb nomlangan bo'lib, unda ayol obrazining vizual tasvirida estetik kategoriyalar dialektikasi, vizual san'atda ayol qiyofasini ifodalashda yuz go'zalligi, tana go'zalligi va plastik go'zallik garmoniyasi, Sharq va G'arb vizual san'at turlarida ayol obrazi aks ettirilishining badiiy-estetik jihatlari e'tibor qaratilgan.

Ushbu bobda ayol obrazining san'at asarlarida, xususan, vizual san'at turlarida aks etishida estetik kategoriyalarning o'zaro dialektik munosabati namoyon bo'lishi, obrazning tashqi ko'rinishi va ichki dunyosi aynan shu estetik kategoriyalar, qonuniyatlar natijasida anglanib borilishi masalalari tahlil qilingan. Har bir san'at asari – individual badiiy-estetik tafakkur natijasi, alohida badiiy ijodkorning ijodiy faoliyati mahsuli. Badiiy asarni yaratishda har qanday ijodkor u yoki bu darajada estetik qonuniyatlarga bo'ysunadi, kategoriyalarga murojaat qiladi. Ayol obrazining vizual tasvirini yaratishda ham ijodkordan nozik estetik did, estetik kategoriyalar dialektik munosabatini his qilish talab etiladi. Har qanday vizual san'at asaridagi ayol obrazi, uning tashqi ko'rinishi badiiy shakl va mazmunning bir-biriga mosligi, garmoniya, proporsiya, simmetriya, ritm, badiiy yaxlitlik, qarama-qarshiliklar birligi, sifat va miqdor qonuniyatlariga bo'ysunadi, vizual tasvir elementlarida mazkur qonuniyatlar o'z ifodasini topadi.

Tadqiqotchining fikricha, vizual san'at turlari, xususan, tasviriy san'at, haykaltaroshlikda shakl – san'at obyektining tashqi ko'rinishi, chizilish yoki yasalishi, hajmning konstruktiv tuzilishini ifodalasa, mazmun – san'at asarining g'oyasini, mohiyatini o'zida aks ettiradi. Bir so'z bilan aytganda, mazmun – ijodkor nimani aytmoqchi ekanligini tasvirlasa, shakl – uni qanday qilib aytmoqchi ekanligini anglatadi. Masalan, rassom ayolning tashqi go'zalligini, shu bilan birga,

²³ Yuval Noah Harari. 'Sapiens: A Brief History of Humankind'. Harper (UK); 1st edition (February 10, 2015). – P. 26.

²⁴ Duckeck, Jochen (10 December 2008). "Lionheaded Figurine". Archaeology. Retrieved 17 May 2009.

nomusli ekanligini (mazmun) o‘z asarida obrazning tabassum bilan yerga qarab turgan holatda tasvirlashi (shakl) orqali ifodalashi mumkin.

Falsafiy-estetik qonuniyatlar vizual san’atda ayollar tasvirini ifodalashda, asarning badiiy ta’sirchanligini oshirishda, tomoshabinning estetik tuyg‘ularini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Ikkinchi tomondan esa, estetik qonuniyatlar estetik kategoriyalarning badiiy asarda o‘z ifodasini topishida ham muhim rol o‘ynaydi. Qolaversa, vizual san’atning barcha turlarida yaratilgan ayol obrazida estetik kategoriyalarga murojaat qilinadi.

Dissertantning fikricha, ayollarning vizual qiyofasini yaratishda mazkur san’at asarlarida go‘zallik, ulug‘vorlik, mo‘jizaviylik, qiziqarlilik, xayoliylik kabi estetik kategoriyalarning aks ettishiga katta e’tibor qaratilgan. Har bir ijodkor o‘zi yaratgan ayol tasvirini ideal bo‘lishini, uning ijod namunasi go‘zallik, ulug‘vorlik kategoriyalari uchun etalon bo‘lishini istagan. Buning uchun esa ijodkor estetikaning shakl va mazmunning bir-biriga mosligi, garmoniya, proporsiya, simmetriya, ritm, badiiy yaxlitlik, qarama-qarshiliklar birligi kabi qonuniyatlarini yaxshi anglab yetishi hamda ayolning vizual tasvirini yaratishda ushbu qonuniyatlarga amal qilishi talab etilgan.

Inson, ayniqsa, nozik jins vakili bo‘lgan ayol chehrasi, jismi, tanasining go‘zalligi benuqsonlik, simmetriya, proporsionallik, ritm, maqsadga muvofiqlik, garmoniya, ranglar uyg‘unligi, nur va soya kabi estetik me’yor va mezonlarning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Ushbu mezonlarning yig‘indisi inson fiziologiyasiga, xususan, insonning ko‘rish sezgisiga yoqimlilik hissini uyg‘otadi. XVIII asrda yashagan nemis shoiri, san’atshunos Gotxold Efraim Lessing: “Inson tanasining go‘zalligi bu – uning tanasidagi turli qismlarining o‘zaro garmoniyasi va uni bir qarashda qamrab olinishidir, xunuklik esa bu qism va butunlikning disgarmoniyasidir”, – deya ta’kidlagan edi²⁵. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ayol obrazini vizual san’atda tasvirlashda nafaqat badiiy-estetik talablarga bo‘ysunish, balki fiziologik, anatomik jihatlarni hisobga olish ham zarur. Zero, mukammal fiziologik, anatomik ko‘rinishda tasvirlangan insonga hamisha go‘zallikning namunasi sifatida qaraladi.

Ayollarning vizual go‘zalligi san’atda aks ettirishda ikki qarashga e’tibor qaratish lozim: “go‘zallik – salomatlik” va “go‘zallik – yoshlik”. Salomatlik va yoshlik vizual san’atda ayol go‘zalligining muhim xususiyatlari sifatida uning anatomik xususiyatlarini ifodalashda e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Bir tomondan olib qaraganda, go‘zallik inson sog‘ligini ifodalovchi, uning jismoniy imkoniyatlarini aks ettiruvchi mezon sifatida vizual tasvirda namoyon bo‘ladi, ayolning tana tuzilishi, yuzi, terisining rangi, fiziologik holati uning salomatligini ko‘rsatib turadi. Hattoki eng realistik san’at uslublarida ham ayol qiyofasining mukammal go‘zalligini barkamol jismoniy holatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Boshqa tomondan, ayollarning vizual tasvirida go‘zallik va yoshlik dialektikasi hamisha e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Tasviriy san’at yoki haykaltaroshlikda bugungi kungacha yaratilgan ayol obrazlarining aksariyat qismi taxminan 15-

²⁵ Sjöholm C. Lessing's Laocoon: Aesthetics, Affects and Embodiment //Nordic Journal of Aesthetics. – 2013. – №.46. – pp. 18-33.

35 yosh oralig'ida tasvirlanganligini kuzatish mumkin. "Ayol – ona" kabi tipik obrazlarda, go'zallikning disbalansini, xunuklikni ko'rsatish talab etiladigan yoki boshqa shu mazmundagi boshqa holatlarda ayollarning yoshi bilan bog'liq yondashuv o'zgartiriladi.

So'nggi yillarda ayollarning vizual go'zalligi sifatida anatomik xususiyatlarini tadqiq etishga yo'nalgan ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularning ba'zilarida mukammal yuz (25 dan ortiq mamlakatda)²⁶, ba'zilarida esa ideal tana standartlari (18 davlatda)²⁷ bo'yicha dunyoning turli hududlaridagi estetik did va qarashlardagi hayratlanarli tavofut kuzatilgan.

Mazkur bobda dissertant Sharq va G'arb vizual san'at turlarida ayol obrazi aks ettirilishining badiiy-estetik jihatlariga e'tibor qaratib, unga ko'ra G'arb va Sharq vizual san'at asarlaridagi ayollar obrazi bir-biridan katta farq qilib, mazkur farqni anglash uchun mintaqalardagi madaniy va tarixiy kontekstni tushunish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotchining fikricha, G'arb va Sharq vizual san'atlari bir-biridan ishlatiladigan uslublari, vositalari va ashyolari, madaniy muhiti, estetik ideallari, diniy va falsafiy qarashlariga ko'ra farqlanadi. Masalan, tasviriy san'at va haykaltaroshlikda ishlatiladigan ashyolar G'arb va Sharq uchun farqli. Ilgari G'arb rassomchiligida, asosan, qalin kanopdan to'qilgan matodan foydalanilsa, an'anaviy koreys, yapon, xitoy san'atida guruchdan tayyorlanuvchi yupqaroq qog'ozga rasm chizishni ma'qul ko'rishgan. G'arb haykaltaroshligi material sifatida asosan metall va toshdan foylansa, Sharqda bulardan tashqari to'qimachilik mahsulotlari, yog'och ham ishlatiladi.

Estetik ideallar nuqtayi nazaridan G'arb inson tanasining go'zalligi, jismonan mukammalligini tasvirlashni asosiy o'ringa chiqardi, Sharqda, masalan islom san'atida islomiy naqshlar, geometrik shakllarga alohida e'tibor qaratildi. Yoki G'arb san'atida turli rangdagi bo'yoqlardan foydalanilgan murakkab tasvirlar chizish qadrlangan, Xitoy va Yaponiyada esa oddiy siyohdan foydalanuvchi kalligrafiya yuksak san'at darajasiga ko'tarilgan. Madaniy kulturning ham G'arb va Sharq san'atiga ta'siri katta bo'lgan. Sharqda san'at asosiy e'tiborni oila kabi ijtimoiy institutlarga qaratdi, san'atga ijtimoiy mahsulot sifatida yondashildi. Tarixda o'z asarlariga hatto imzolarini qo'ymagan Yaponiya va G'arbiy Afrikalik ijodkorlarning asarlarini uchratish mumkin. G'arbda esa individuallikka, rassomning dahosiga e'tibor qaratilgan, liberal gumanizm markaziy o'ringa qo'yilgan. Bundan tashqari, G'arb va Sharq san'ati taraqqiyotiga din faktori ham katta ta'sir ko'rsatgan. G'arb vizual san'atida dastlab antik yunon politeistik qarashlari, keyinchalik xristian dini g'oyalari san'atni ilhomlantirgan, diniy mavzularni rag'batlantirgan. Sharqda esa buddizm ta'sirida haykaltaroshlik, islom dini tufayli badiiy adabiyot, arxitektura, miniatyura, naqqoshlik, xattotlik taraqqiy etdi²⁸.

²⁶ <https://www.buzzfeed.com/ashleyperez/global-beauty-standards>

²⁷ <https://www.professionalbeauty.com.au/beauty/want-to-know-what-the-ideal-body-shape-in-18-countries-is/#.VdVv7mZHanM>

²⁸ https://www.ehow.com/info_8479986_several-western-nonwestern-art-differ.html

Vizual san'atda ayol siymosining yaratilishida ham Sharq va G'arb san'ati ikki xil yondashuvdan foydalangan. Qadimiy Sharqdagi go'zallik haqidagi estetik qarashlar dastlab foydalilik (nima foydali bo'lsa – o'sha go'zal), keyinroq axloqiylik (nima ezgu bo'lsa – o'sha go'zal) tamoyillari asosida shakllandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobini "Ayol vizual obrazining badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotiga ta'siri istiqbollari" deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda ayol obrazining vizual san'atda ifodalanishining badiiy-estetik did, estetik qadriyatlar va ijtimoiy ongda mavjud estetik ideallar tizimi bilan dialektik munosabati, nosan'at estetik obyektlarda ayol qiyofasi ifodalanishining badiiy-estetik mezonlari, zamonaviy vizual san'atda ayol tasviri aks ettirilishi, bugungi o'zbek vizual san'atida ayol obrazi aks ettirilishining badiiy-estetik xususiyatlari, muammolari va yechimlari estetika fani nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur bobda dissertatsiya tadqiqoti doirasida o'tkazilgan "Ayol qiyofasining vizual san'atda ifodalanishining badiiy-estetik xususiyatlari" mavzusida sotsiologik so'rovnomani natijalari²⁹ ham tahlil etilib, bugungi kunda ijtimoiy ongda ayol obrazining in'ikosi bilan bog'liq xulosalar tahlil qilingan.

Tadqiqotchining fikricha, vizual san'at asarlarida ayol qiyofasining ifodalanishida estetik didning ikki jihatdan zaruriy ishtiroki talab etiladi. Birinchidan, muvaffaqiyatli ayol obrazining yaratilishi ijodkordan badiiy-estetik bilim, keng dunyoqarash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan estetik qadriyatlar va ideallarni bilish bilan bir qatorda, yuksak estetik didga ega bo'lishni ham talab etadi. Ikkinchi tomondan, mazkur ayol qiyofasini qayta idrok etuvchi, u bilan estetik munosabatga kirishuvchi subyekt ya'ni tomoshabinning ham estetik didi darajasi ham muhim. Chunki inson o'z sezgisi, idroki, tasavvuri hamda estetik ustanovkasi kabilar orqali tashqi dunyoni obrazlar, ramzlar orqali anglaydi, estetik didi orqali san'at asarlari va nosan'at obyektlarni baholaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ayol obrazining yaratilishidan tortib tomoshabin tomonidan baholanishi, estetik qadriyat darajasigacha ko'tarilishigacha bo'lgan barcha estetik jarayonlarda estetik did kategoriyasi faol ishtirok etadi.


Estetik qadriyatlar ham obrazlar, xususan, ayol obrazining yaratilishida katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki estetik qadriyatlar tizimi, qadriyatlarning boshqa turlarida bo'lgani kabi, uzoq davrlar davomida shakllanib, xalqning ma'lum bir estetik obyekt yoki kategoriyaga nisbatan o'ziga xos munosabati, qarashlarini o'zida

²⁹ So'rov 2024-yilning may va iyun oylarida respublikaning tanlab olingan Namangan (145 nafar) va Surxondaryo viloyatlari (169 nafar) hamda Toshkent shahar (169 nafar) mintaqalarida istiqomat qiluvchi 483 nafar respondent o'rtasida o'tkazildi. Respondentlarning 61,9 foizi (299 nafar) shahar, 38,1 foizi (184 nafar) esa qishloq tipidagi hududda yashaydi. Respondentlarning jinsi: erkak – 32,5 % (157 nafar), ayol – 67,5 % (326 nafar); oilaviy holati: turmush qurmagan – 75,8 % (366 nafar), oilali – 23,2 % (112 nafar), ajrashgan – 0,4 % (2 nafar), beva – 0,6 % (3 nafar); Yo'nalishi: san'atshunoslik sohasi – 40,2 % (194 nafar), pedagogika (ta'lim) – 32,1 % (155 nafar), ijtimoiy-gumanitar soha – 17,2 % (83 nafar), aniq fanlar, muhandislik va texnika sohalari – 9,7 % (47 nafar), qolgan sohalari – 0,8 % (4 nafar). Respondentlarning yosh tarkibi: 17-20 yoshdagilar – 60,2 % (291 nafar), 21-25 yoshdagilar – 24,0 % (116 nafar), 26-30 yoshdagilar – 6,2 % (30 nafar), 31-35 yoshdagilar – 5,2 % (25 nafar), 36 yosh va undan katta yoshdagilar – 4,4 % (21 nafar). Faoliyat turi: ta'lim olish – 74,9 % (362 nafar), ishlash – 16,8 % (81 nafar), vaqtincha ishsiz – 8,3 % (40 nafar);

So'rov standartlashtirilgan anketa asosida intervyu usuli orqali respondentlarning ish va o'qish joylari bo'yicha o'tkazildi. Intervyuning o'rtacha davomiyligi 30 daqiqani tashkil qildi. Ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil etishda matematik statistika va boshqa turli statistik tartibdagi metodlardan foydalanildi. Ma'lumotlarning yakuniy natijalari bo'yicha statistik tahlil SPSS dasturidan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

jamlagan. Ayol vizual tasvirini yaratish va obrazning baholanishi, qiymatlanishi bilan bog‘liq estetik faoliyatning barcha ishtirokchilarida qanday ayolni go‘zal deb hisoblash mumkinligi yuzasidan aksiologik yondashuv, qadriyatlar kulti mavjud. Bu esa ayol qiyofasini yaratishdan tortib, tayyor obraz vositasida estetik muloqotga kirishishgacha bo‘lgan estetik jarayonlarda ijodkor va tomoshabin o‘rtasida umumiy qarashlar, qadriyatlar yaqinligi tufayli o‘zaro bir-birini tushunish paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiya doirasida o‘tkazilgan so‘rovnomada respondentlarga ulardagi ayol obrazini yaratishda estetik qadriyatlar tizimining tarkibiy tuzilishini aniqlash maqsadida “Vizual san‘at turlaridagi ayollar obrazi qaysi estetik xususiyatlarni o‘zida ifodalashi kerak deb hisoblaysiz?” savoli bilan murojaat qilindi. Respondentlarning 25,4 foizi go‘zallik, 20,3 foizi nafosat, 11,8 foizi estetik ideal javoblarini tanlashdi (1-rasm). Shuningdek, vizual ayol obrazida latofat (10,4 %), zamonaviylik (7,3 %) va ulug‘vorlik (6,5 %) kabi estetik qadriyatlar aks etishiga ham respondentlar tomonidan e‘tibor qaratilgan. Bu esa go‘zallik, nafosat, estetik ideal, latofat kabi estetik qadriyatlar ayolning vizual obrazini yaratishda ijtimoiy jihatdan zaruriy estetik atributlar sifatida e‘tirof etilishini bildiradi.



1-rasm. Respondentlarning vizual san‘atda ayollar obrazi qanday estetik xususiyatlarni o‘zida ifodalashi kerakligi bo‘yicha fikrlari (foizda)

